

TDYU muassisligidagi jurnallarda maqola chop etish yuzasidan
OFERTA SHARTNOMASI

I ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Ushbu shartnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Jurnal – TDYU muassisligidagi jurnallar;

Buyurtmachi – o‘zining “materiallari: “Jurnal” tomonidan tahrir qilinishi, chop etilishi yuzasidan shartnoma tuzish istagini bildirgan shaxs;

Oferta – “Buyurtmachi” taqdim etgan “materiallar”ni tahrir qilish, chop etish haqida shartnoma tuzish bo‘yicha “Jurnal” tomonidan bildirilgan taklif;

Oferta shartnomasi – “Jurnal” bilan “Buyurtmachi” o‘rtasida elektron shaklda tuziladigan, “Jurnal” tomonidan bajarilgan ishlar uchun to‘lovlar elektron to‘lov tizimidan foydalangan holda amalga oshiriladigan elektron shartnoma;

II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha “Jurnal” “Buyurtmachi” tomonidan taqdim etilgan “Materiallar”ni tahrir qilish, ularni chop etish majburiyatini, “Buyurtma” esa ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

III. XIZMAT HAQI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Mazkur Shartnoma summasi Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil 28-fevraldagi 13-sonli majlisi qaroriga asosan belgilanadi. Qarorga muvofiq, “Yurisprudensiya”, “Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” hamda “O‘zbekiston qonunchiligi tahlili” ilmiy jurnallarini nashr etish bilan bog‘liq xarajatlar (jumladan, elektron resurslar, veb-saytni yuritish, xalqaro bazalar bilan hamkorlik qilish)ni inobatga olgan holda, jurnal faoliyati o‘z-o‘zini moliyalashtirish asosida amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, jurnalga taqdim etilgan va tahrir hay‘ati tomonidan e‘lon qilishga tavsiya etilgan maqolalar uchun to‘lov har bir mualliflik varag‘i uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o‘n) foizini tashkil etadi.

3.2. “Buyurtmachi” shartnoma summasining 100 foiz miqdorida ushbu Shartnoma imzolanganidan keyin 10 kunlik muddat ichida oldindan to‘lovi amalga oshiradi.

3.3. To‘lov pul o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

3.4. Bazaviy hisoblash miqdori (BHM) oshganda Shartnoma summasi mos ravishda oshadi.

3.5. Ijrochi Buyurtmachining aybi bilan xizmatni ko‘rsata olmagan taqdirda, Buyurtmachi tomonidan to‘langan to‘lov ko‘rsatilgan xizmatga muvofiq qayta hisob-kitob qilinadi.

3.6. Ijrochining aybi bilan xizmat ko‘rsatish mumkin bo‘lmay qolgan taqdirda, to‘langan pul mablag‘lari qaytarib beriladi.

IV. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. Ijrochining majburiyatlari:

4.1.1. Ijrochi mazkur Shartnomaning 1.1. va 1.2.-bandlarida nazarda tutilgan xizmatlarni shaxsan o‘zi ko‘rsatishi;

4.1.2. Mazkur Shartnomaning 1.1. va 1.2.-bandlarida ko‘rsatilgan xizmatni lozim darajada bajarish;

4.1.3. Ijrochi xizmat ko‘rsatishni jurnalning davriyligiga mos muddatda amalga oshirishi.

4.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

4.2.1. Mazkur Shartnomaning shartlariga muvofiq Ijrochi tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq to‘lash;

4.3. Ijrochi quyidagi huquqlarga ega:

- 4.3.1. Buyurtmachini 15 kalendar kun oldin xabardor qilib, ushbu Shartnomani o‘zaro kelishuv asosida bekor qilish;
- 4.3.2. Buyurtmachidan ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq to‘lovlarni amalga oshirishni talab qilish;
- 4.3.3. Irochidan Shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik natijasida yetkazilgan zararli qoplashni talab qilish.
- 4.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega;
- 4.4.1. Istalgan vaqtda Ijrochi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning borishini va sifatini uning ishlariga aralashmasdan tekshirish;
- 4.4.2. Ijrochidan ushbu Shartnomaga muvofiq tegishli xizmatlarni taqdim etishni talab qilish;
- 4.4.3. Ijrochidan Shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish.

V. XIZMATLARNI TOPSHIRISH-QABUL QILISH TARTIBI

- 5.1. Xizmatlar ko‘rsatilgandan so‘ng Ijrochi Buyurtmachiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha hisob-fakturani taqdim etadi va unga hisobot hujjatlarini ilova qiladi.
- 5.2. Xizmat natijalaridan qoniqmagan Buyurtmachi hisob-fakturani olgan paytdan boshlab 3 kun ichida xizmatlarni qabul qilishdan bosh tortishi mumkin. Buyurtmachi xizmatlarni qabul qilishdan bosh tortganda o‘z e‘tirozlarini asoslangan holda yozma ravishda taqdim qiladi.
- 5.3. Buyurtmachining e‘tirozlari asosli deb topilgan taqdirda, taraflar ikki tomonlama dalolatnoma tuzadilar va unga qo‘shimcha ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan xizmatlar ro‘yxati va ularni bajarish yoki bajarishni to‘xtatish muddatlarini ko‘rsatadilar.
- 5.4. Xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida ularni davom ettirish imkoniyati yo‘qligi yoki maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, Buyurtmachi bu haqda Ijrochini xabardor qilishi va u bilan birga zaruriy choralarni ko‘rishi shart.
- 5.5. Buyurtmachi tomonidan 3 kun ichida ko‘rsatilgan xizmatlarga yozma ravishda e‘tiroz bildirilmasa, ko‘rsatilgan xizmatlar e‘tirozlarsiz qabul qilingan hisoblanadi.
- 5.6. Buyurtmachi ilmiy maqolani belgilangan talablar: A4 formatda; hoshiyasi chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm; shrift – Times new roman, kegli – 14; 1,5 oraliqdagi ko‘rinishda minimal 6 betdan kam bo‘lmagan holda taqdim etishi zarur.
- 5.7. Ijrochi mazkur Shartnomaning 4.6.-bandida ko‘rsatilgan hamda jurnalning umumiy belgilangan talablariga javob bermaydigan ilmiy maqolani nashr qilishni o‘z zimmasiga olmaydi.

VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI. NIZOLARNI HAL QILISH

- 6.1. Taraflar biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:
ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi, lekin bu to‘lov ushbu Shartnomaning umumiy bahosidan ortiq bo‘lishi mumkin emas.
- 6.2. Taraflar o‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlari hamda mazkur shartnomaga muvofiq javobgar bo‘ladilar.
- 6.3. “Buyurtmachi” tomonidan taqdim etilgan materiallarda boshqa shaxslarning mualliflik yoki turdosh huquqlari buzilganligi to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha “Jurnal” javobgar hisoblanmaydi.
- 6.4. Taraflar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar taraflarning o‘zaro kelishuvi asosida hal etiladi. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda, nizo belgilangan tartibda sudga hal etiladi.

VII. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA ASOSIY SHARTLAR

7.1. Taraflar ularning o‘zaro bog‘langan shaxslari va xodimlari ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarilishi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va yoki korrupsiya xarakteriga ega bo‘lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va‘da qilish, qandaydir tarzda rag‘batlantirish, sovg‘alar taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg‘araz ko‘rsatish, ta‘magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo‘lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

7.2. Taraflar ushbu Shartnomaning 6.1.-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to‘g‘risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, ikkinchi tomonni xabardor qilishi, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo‘lmaydigan dalillari mavjud bo‘lgan holda esa amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarini xabardor qilish majburiyatini ham o‘z zimmasiga oladi.

VIII. SHARTNOMANI O‘ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Mazkur shartnomaga har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O‘zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo‘l qo‘yiladi.

8.3. Buyurtmachi xizmatlarining belgilangan bahosini to‘liq to‘lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma Ijrochining aybli harakatlari tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

8.4. Ijrochi ushbu Shartnoma bekor qilinishi tufayli Buyurtmachiga yetkazilgan zararining hammasini to‘lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli, Shartnoma Buyurtmachining aybi bilan bekor qilingan hollar bundan mustasno.

8.5. Shartnomani bekor qilish qaroriga kelgan Taraf ikkinchi Tarafga 10 kun oldin yozma bildirishnoma yuborish shart.

IX. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

9.1. Mazkur Shartnoma u imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 202__-yil 31-dekabrgacha amalda bo‘ladi.

9.2. Mazkur Shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo‘lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega va har bir Tarafga bir nusxadan beriladi.

9.3. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan barcha masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.